

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMINI RIVOJLANTIRISHGA OID QO‘SHIMCHA
CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 — 2026-yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son [Farmoni](#) ijrosini ta‘minlash maqsadida:

1. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va bu borada maktab direktori, ota-onalar va mahalla raislari mas‘uliyatini kuchaytirish maqsadida Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-sentabrdan boshlab respublikaning barcha tuman (shahar)lari kesimida namunali maktablar reytingini (keyingi o‘rinlarda — reyting) shakllantirsin va e‘lon qilib borsin.

Belgilansinki:

reyting doirasida har o‘quv yili yakunida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar holati Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan mezonlar bo‘yicha baholab boriladi;

umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar holatini baholash va reytingni yuritish uchun tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limlari boshliqlari rahbarligida maxsus komissiyalar tuziladi;

umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari reyting ko‘rsatkichlari asosida “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalarga ajratiladi;

reyting ko‘rsatkichlari asosida “qizil” toifaga kiritilgan umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha zarur choralar ko‘riladi.

2. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi (X. Umarova), Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov), Mudofaa vazirligi (B. Kurbanov), Milliy gvardiya (R. Djurayev), Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa‘dullayev), Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi (M. Xodjimatomov) boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-sentabrdan boshlab reyting ko‘rsatkichlari asosida “qizil” toifaga kiritilgan umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida:

ziyoli va nuroniylar, ilg‘or tadbirkorlar, klaster va sanoat korxonalari rahbarlari, mashhur san‘atkor, sportchi va aktyorlar, taniqli blogerlarni jalb qilgan holda maktab o‘quvchilari bilan uchrashuvlar, motivatsion suhbatlar va mahorat darslarini tashkil etsin;

maktab o‘quvchilari uchun “Vatanparvarlik” darslarini va poligonlarda 2 kunlik harbiy dala mashg‘ulotlarini o‘tkazish hamda ularni chavandozlar maktablariga jalb qilish choralari ko‘rsin, harbiy qism ofitserlari, serjantlari va Qurolli Kuchlar faxriylari ishtirokida “Vatan tinchligiga barchamiz mas‘ul!”, “Vatan ozodligi — baxt garovi!”, “Vatanga xizmat — oliy fazilat” mavzularida davra suhbatlarini tashkil qilsin;

o‘quvchilarning me‘moriy va tarixiy obidalar, madaniyat muassasalari hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga tashrifini uyushtirsin;

o‘quvchilarning qiziqishlari, talab va istaklaridan kelib chiqib sport musobaqalari, konsert tomoshalari va san‘at asarlari ko‘rgazmalarini o‘tkazsin;

buyuk ajdodlarimizning ilmiy va madaniy merosi, ularning ibratli hayot yo‘li hamda jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga qo‘shgan hissalariga oid targ‘ibot ishlarini olib borsin, ulug‘ allomalarning tug‘ilgan sanalariga bag‘ishlangan ilmiy haftaliklar, seminar va anjumanlar tashkil etsin;

hayotiy misollar asosida ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o‘rni, majburiyati va mas‘uliyati haqida tushuntirish ishlarini olib borsin, ularni qiziqtirgan va xavotirga solayotgan masalalar bo‘yicha ochiq muloqotlar hamda o‘quv-seminarlarni tashkil etsin.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandilik vazirligi (B. Musayev) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) hokimliklari hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan birgalikda har chorakda namunali

o'quvchilarning ota-onalarini rag'batlantirish, ularga "minnatdorchilik xati"ni topshirish va sovg'alar taqdim etish, shuningdek, faoliyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish amaliyotini yo'lga qo'ysin.

3. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova):

2022-yil 1-avgustga qadar umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi ichki tartib va odob-axloq qoidalarini qayta ko'rib chiqsin va ularda maktab va ota-onaning bola tarbiyasidagi o'rni va mas'uliyatini, ularning ta'lim va tarbiya jarayonidagi ishtiroki hamda majburiyatlarini belgilasin;

umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi ichki tartib va odob-axloq qoidalarini o'zining rasmiy veb-sayti hamda "my. maktab. uz" axborot tizimida joylashtirsin;

2022-yil 1-sentabrdan boshlab, maktab o'quvchilari ota-onalarini "my. maktab. uz" axborot tizimi orqali umumiy o'rta ta'lim muassasasining ichki tartib va odob-axloq qoidalarini bilan tanishtirib borsin.

Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish [konsepsiyasini](#) tasdiqlasin.

4. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini yaxshilash, kompyuter sinf xonalarini zamonaviy texnikalar va boshqa vositalar bilan ta'minlash uchun:

Xalq ta'limi vazirligi (B. Saidov) Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishgan holda 2022-yil 1-sentabrga qadar 2023-2024-yillarda maktablarda ma'nau eskirgan kompyuter sinflarini yangilash bo'yicha dasturni Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritin;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 2023-2024-yillarda maktablarda ma'nau eskirgan kompyuter sinflarini yangilash bo'yicha dasturni moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti hisobidan 200 milliard so'm, mahalliy budjetlar hisobidan 200 milliard so'm miqdorda mablag'lar ajratilishini ta'minlasin;

Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov), Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 2022/2023 o'quv yilidan boshlab 400 nafargacha o'quvchisi bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Internet tezligi kamida 40 Mbit/s, o'quvchilar soni 400 nafardan yuqori bo'lganlarda — kamida 100 Mbit/s bo'lishini ta'minlasin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari umumiy o'rta ta'lim muassasalarini yuqori tezlikdagi Internetga ulash uchun zarur mablag'larni ajratsin;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) 2023-yildan boshlab har yili 1-avgustga qadar Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Moliya vazirligiga umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'nau eskirgan kompyuter texnikasi to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etib borsin;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Kudratov) Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev) bilan birgalikda 2024-yildan boshlab har yili Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarini zamonaviy kompyuterlar bilan ta'minlash bo'yicha moliyalashtirish manbalarini aniqlasin.

5. Xalq ta'limi vazirligi (B. Saidov) Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov) bilan birgalikda:

2022-yil 1-sentabrga qadar fan o'qituvchisi va maktab direktori lavozimlari uchun tanlovda ishtirok etishga onlayn ariza topshirish va nomzod haqida ma'lumotlarni joylashtirish imkonini beradigan maxsus elektron portalni yaratsin;

maxsus elektron portalda amaldagi hamda istiqbolda kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, shuningdek, vakant lavozimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumiy o'rta ta'lim muassasalari va fanlar kesimida joylashtirish orqali milliy kadrlar zaxirasini shakllantirsin.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshkulov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi

(Sh. Shermatov) 2022-yil 1-avgustga qadar o'z axborot tizimlarining "Elektron hukumat" idoralararo integratsiya platformasi orqali maxsus elektron portal bilan integratsiyasini ta'minlasin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev), Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Kudratov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (B. Zokirov) hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) 2022 — 2026-yillarda umumiy o'rta ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash hisobiga 1,2 million o'quvchi o'rni miqdoridagi yangi quvvatlar yaratilishini ta'minlasin.

Bunda, maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari hamda o'quv kurslarini moddiy-texnik jihozlash bo'yicha talablar Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan belgilanadi.

Belgilab qo'yilsinki, asosiy prognoz ko'rsatkichlarga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash — O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida ajratiladigan mablag'lar, Davlat budjeti mablag'lari, xalqaro moliya institutlarining kreditlari va grantlari, homiylik xayriyalari, xususiy sheriklar hamda nodavlat ta'lim tashkilotlari mablag'lari, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida 2022 — 2026-yillarda umumiy o'rta ta'limda 700 ming o'quvchi o'rni miqdoridagi yangi quvvatlar yaratilishini ta'minlasin.

7. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Musayev) hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (I. Abduraxmonov) bilan birgalikda 2022/2023 o'quv yilidan boshlab:

boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv rejaga kiritilgan fanlar doirasida mehnat bozorida mavjud bo'lgan turli kasblar to'g'risida tushunchalar berib borsin;

kasb egalarining mehnat faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida 5 — 7-sinf o'quvchilari uchun turli uchrashuv va sayyor darslarni tashkil etsin;

7 — 9-sinf o'quvchilarining kasbga moyilligini aniqlash bo'yicha tashxislar o'tkazib borsin hamda natijalaridan kelib chiqib, ishlab chiqarish korxonalari, hunarmandchilik markazlari va boshqa tashkilotlarga ekskursiyalar tashkil qilsin;

hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va o'sish nuqtalariga muvofiq maktab o'quvchilari uchun ustuvor kasblarni belgilasin hamda 10- va 11-sinf o'quvchilarini ushbu kasblarga, shu jumladan kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlari, qisqa muddatli kurslar ochilgan ta'lim muassasalarida o'qitish choralari ko'rsin.

Xalq ta'limi vazirligi (B. Saidov), Qurilish vazirligi (B. Zokirov), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov) 2022-yil 1-avgustga qadar umumiy o'rta ta'lim muassasalarining texnologiya fani ustaxonalari hamda kasb-hunar amaliyoti xonalari namunaviy loyihalarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 2022/2023 o'quv yilidan boshlab tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining texnologiya fani ustaxonalarini hamda kasb-hunar amaliyoti xonalari bosqichma-bosqich tashkil etish va jihozlash choralari ko'rsin.

8. 2023-yil 1-yanvardan boshlab shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

a) umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari har 11 yilda kamida bir marta majburiy tarzda attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladi. Bunda, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari muddatdan oldin attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan shartnoma asosida o'tishi mumkin;

b) umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari quyidagi tartibda attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladi:

faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari — amaldagi akkreditatsiya sertifikatining muddati tugaganidan so'ng 11 yil muddatga;

yangi tashkil etiladigan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari — ular tashkil etilgan paytdan boshlab (belgilangan tartibda litsenziya olgan paytdan boshlab) 11 yil muddatga;

v) davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida xavf-xatarlar tahliliga asoslangan ta'lim sifati monitoringi joriy etiladi. Bunda:

monitoring natijalariga ko'ra ta'lim sifatida pasayish kuzatilgan davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining faoliyati alohida rejaga muvofiq joyiga chiqqan holda o'rganiladi;

joyiga chiqib o'rganish natijasi bo'yicha davlat umumiy o'rta ta'lim tashkiloti uchun faoliyat samaradorligini yaxshilash bo'yicha "yo'l xarita"si ishlab chiqiladi;

"yo'l xarita"sida belgilangan chora-tadbirlar o'z vaqtida va lozim darajada bajarilishi uchun umumiy o'rta ta'lim muassasasiga tuman (shahar) hokimliklari va xalq ta'limi bo'limlari ko'mak ko'rsatadi;

g) uzluksiz uch yil davomida faoliyat samaradorligi darajasi yuqori bo'lgan davlat va nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tekshiruvlar tashkil etishga 3 yil muddatga moratoriy joriy qilinadi (potensial korrupsiogen holatlar bundan mustasno).

9. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (U. Tashkenbayev) va Xalq ta'limi vazirligi (B. Saidov) 2022-yil 1-oktabrga qadar:

davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida xavf-xatarlar tahliliga asoslangan ta'lim sifati monitoringini amalga oshirish tartibini;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining faoliyatini ichki va tashqi baholashdan o'tkazishning soddalashtirilgan tartibini belgilovchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

10. Davlat test markazi (M. Karimov) Xalq ta'limi vazirligi (B. Saidov) bilan birgalikda 2022-yil 1-sentabrga qadar 2024-yildan boshlab umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari hamda kasb-hunar maktablari bitiruvchilari uchun yakuniy davlat attestatsiyasini Davlat test markazi tomonidan imtihonlar shaklida o'tkazishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

11. Belgilab qo'yilsinki, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining:

ta'lim berishga mo'ljallangan binolari va inshootlarini ta'lim sohasidan tashqari boshqa maqsadlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi taqiqlanadi;

ta'lim berishga mo'ljallangan, bo'sh turgan binolari hamda inshootlarini boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga berish ular joylashgan hududning kamida 5 yillik demografik ko'rsatkichlarini inobatga olib, maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining roziligini olgan holda amalga oshiriladi.

12. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2022-yil 1-sentabrdan boshlab:

maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi muassasa va tashkilotlar rahbarlariga budjetdan tashqari mablag'larini mustaqil tasarruf etish huquqi beriladi;

2030-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi muassasa va tashkilotlarning (vazirlik markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalaridan tashqari) budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilanadi;

qo'shimcha xizmat ko'rsatishdan tushgan budjetdan tashqari mablag'larni yashirgan, shuningdek, xodimlarga norasmiy ish haqi to'lagan xalq ta'limi tizimidagi muassasa va tashkilotlarning rahbarlari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

13. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari zimmasiga:

maktabgacha va maktab ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari tomonidan tasdiqlangan hududiy dasturlarda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash;

har chorakda hududiy dasturda belgilangan vazifalar ijrosini Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari viloyat Kengashlari sessiyalarida muhokama etib borish hamda Maktab ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha milliy kengashga bu haqida axborot kiritilishini ta'minlash;

hududdagi maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ularning infratuzilmasini yaxshilash;

maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash, ularga tutash hududlarni obodonlashtirish, infratuzilmani (trotuarlar, yo'llar va boshqalar) zarur holatda saqlash bo'yicha buyurtmachi funksiyasini amalga oshirish;

maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarini elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi, zarur sanitariya-gigiyena sharoitlari va boshqa kommunal xizmatlar bilan uzluksiz ta'minlash;

tumanlar (shaharlar)ni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektor rahbarlari bilan birgalikda maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarini o'quv yiliga va kuz-qish mavsumiga o'z vaqtida va samarali tayyorlash tadbirlarini amalga oshirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xavfsizligini ta'minlash, shu jumladan hududlar atrofini o'rash, ularga huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha inspektorlarni birlashtirish, videokuzatuv kameralari va yong'inga qarshi signalizatsiya tizimlarini o'rnatish choralarini ko'rish;

maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarini hududining va ko'chmas mulkning butunligini hamda daxlsizligini belgilangan tartibda ta'minlash;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun investitsiyalarni va homiylik yordamini jalb qilishga ko'maklashish;

maktabgacha va maktab ta'limi muassasalariga ko'maklashish masalalari bo'yicha vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarning hududiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini belgilangan tartibda eshitish;

o'qituvchi kasbi maqomi va obro'sini oshirish, ularga munosib mehnat sharoitlarini yaratish, pedagoglarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik va faoliyatiga aralashmaslik;

o'quvchilar ongiga vatanparvarlik tuyg'ularini va milliy qadriyatlarni singdirish, boy madaniy-tarixiy meros, milliy urf-odatlar, buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosini o'rganishlari uchun sharoitlarni yaratishda sektor rahbarlari va mutasaddi tashkilotlarni keng jalb etish;

soha xodimlari, ta'lim muassasalarini rahbarlari, pedagoglarning Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi shaxsiy hisssasi, o'quvchilarni har tomonlama yetuk avlod etib tarbiyalashdagi mas'uliyatlarini his etishlari uchun targ'ibot va tushuntirishlar olib borish;

rahbar va pedagog kadrlar tomonidan ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni, sohada joriy qilinayotgan yangiliklarni yanada kengroq targ'ib etilishi, o'quvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishlari uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni olishlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish, ularning bilimi va tafakkurini oshirish maqsadida maktabgacha va maktab ta'limi yo'nalishidagi bosma nashrlarni ta'lim muassasalariga yetkazib berishni ta'minlash vazifalari yuklansin.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga [2-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

15. Xalq ta'limi vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

16. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib maktabgacha va maktab ta'limi vaziri X. Umarova, iqtisodiyot va moliya vaziri Sh. Kudbiyev, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari belgilansin.

Qaror ijrosini har chorakda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.A. Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 11-may,
PQ-241-son

[O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-241-son qaroriga](#)
[2-ILOVA](#)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son qarorining **1-bandida**:

a) **to‘rtinchi xatboshidagi** “mablag‘lari hisobidan” so‘zlaridan keyin “qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

b) **beshinchi xatboshi** chiqarib tashlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-dekabrda “Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-2691-son qarori 4¹-bandining **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Belgilansinki:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari, Andijon, Jizzax, Namangan, Navoiy, Sirdaryo, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlari hokimlarining turizm, sport, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlarining kotibiyatiga qo‘shimcha bir nafar shtat birligini ajratish Turizm va sport vazirligi tizimidagi sport-ta‘lim muassasalarining shtat birliklarini qisqartirish hisobiga amalga oshiriladi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta‘limi vaziri, viloyatlar xalq ta‘limi boshqarmasi boshliqlari, Toshkent shahar xalq ta‘limi bosh boshqarmasi boshlig‘i, tuman (shahar) xalq ta‘limi bo‘limi mudirlari bir vaqtning o‘zida tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimlarining ta‘lim va tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilari hisoblanadi”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martda “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2829-son qarori 3-bandining **yettinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2017/2018 o‘quv yilidan boshlab akademik litseylar va kasb-hunar maktablari o‘quvchilarini umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari uchun mo‘ljallangan umumta‘lim fanlari bo‘yicha darsliklar bilan ta‘minlash qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg‘armasining aylanma mablag‘lari hamda Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrda “Xalq ta‘limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son **qarorida**:

a) **2-band** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

b) 3-bandning “a” va “b” **kichik bandlari** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

v) **4-bandda**:

quyidagi mazmundagi o‘n to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“davlat umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari hududida o‘rnatilgan video kuzatuv kameralari va biometrik identifikatsiya tizimlari orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar uchun O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga muvofiq undiriladigan jarimalar summalarining 50 foizi”;

o‘n to‘rtinchi — yigirma oltinchi xatboshilari tegishincha o‘n beshinchi — yigirma yettinchi xatboshilar deb hisoblansin;

“v” kichik band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

g) **6-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Vazirlikka, uning hududiy bo‘linmalari va idoraviy bo‘ysunuvidagi tashkilotlarga hamda umumta‘lim muassasalariga Vazirlik huzuridagi “Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi” davlat unitar korxonasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish huquqi berilsin va ushbu shartnomalar maxsus axborot portalida ro‘yxatdan o‘tkazilsin”;

d) **10-bandda**:

beshinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

oltinchi — o‘n birinchi xatboshilar tegishincha beshinchi — o‘ninchi xatboshilar deb hisoblansin;

e) **12-bandda**:

beshinch **xi**atboshi chiqarib tashlansin;

oltinchi — to'qqizinchi **xi**atboshilar tegishincha beshinchi — sakkizinchi **xi**atboshilar deb hisoblansin;

j) 10, 11 va 12-bandlardagi tegishli kelishikdagi “davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi kelishuv” so'zlari tegishli kelishikdagi “davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim” so'zlari bilan almashtirilsin;

z) 23-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“23. Vazirlikning markaziy apparati va “Xalq ta'limi sohasida loyiha hujjatlariga texnik topshiriqlarni ishlab chiqish va qurilish obyektlari sifatini monitoring qilish bo'yicha injiniring kompaniyasi” DUK Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 2a-uyda joylashtirilsin”;

i) 1-ilovada:

“Xalq ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi,” va “Xalq ta'limini rivojlantirish jamg'armasi,” so'zlari chiqarib tashlansin;

“Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari” blokidan keyin “Xalq ta'limi xodimlarini rag'batlantirish jamg'armalari” bloki bilan to'ldirilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4296-son qarorining 6-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Quyidagilar uchun oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy soniga qo'shimcha ravishda bir foizgacha davlat granti asosidagi qabul kvotalari ajratiladi:

2019/2020 o'quv yilidan boshlab “Mehribonlik” uylari va bolalar shaharchalarining bitiruvchilari bo'lgan chin yetimlar uchun;

2021/2022 o'quv yilidan boshlab SOS — bolalar mahallalari va oilaviy bolalar uylari bitiruvchilari, shuningdek, vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalar (yigirma besh yoshga to'lmagan) uchun”.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Oliy ta'lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4319-son qarorida:

a) 2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Belgilab qo'yilsinki:

test sinovi topshiriqlari davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari asosida tuziladi;

test sinovi materiallarining ma'no-mazmuni umumiy o'rta ta'lim tizimidagi fanlarning o'quv dasturlariga moslashtiriladi;

abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi, masala va misollarni bajara olish qobiliyati va ta'limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, kompetensiyaga asoslangan test topshiriqlari ishlab chiqiladi;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga mos test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, baholash mezonlari, test topshiriqlari soni va test sinovlarini o'tkazishning aniq muddatlari O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan, Toshkent davlat yuridik universiteti bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha test sinovlari topshiriladigan fanlar majmuasi esa universitet tomonidan belgilanadi;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga mos test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi har yili 15-oktabrga qadar e'lon qilinadi;

O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari tasdiqlangandan so'ng, yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari tashkil etilgan taqdirda, ularga mos test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi alohida tasdiqlanadi;

2019/2020 o'quv yili qabulidan boshlab O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan davlat oliy ta'lim muassasalariga bakalavriatga o'qishga kirish uchun abituriyentlar Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qiladilar”;

b) 4-bandning **beshinch** xatboshisi “foizigacha” soʻzidan keyin “(ragʻbatlantirish koeffitsiyentini hisobga olgan holda)” soʻzlari bilan toʻldirilsin”.

7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi “Xalq taʼlimi tizimidagi maktabdan tashqari taʼlim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4467-son **qarorida**:

a) 1-bandning **beshinch** xatboshisidagi “2020 — 2023-yillarda” soʻzlari “2025-yilga qadar” soʻzlari bilan almashtirilsin;

b) 5-bandning **ikkinchi** xatboshisidagi “2020/2021” raqamlari “2022/2023” raqamlari bilan almashtirilsin;

v) 13-bandning **uchinchi** xatboshisidagi “koʻchma kutubxonalar” soʻzlari “mahallalar kutubxonalari” soʻzlari bilan almashtirilsin;

g) **14-band** oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin;

d) **1-ilovada**:

6-pozitsiyaning “Tadbirlar nomi” ustunidagi “vositalar uchun elektron formatdagi dasturiy loyihalarni” soʻzlari “vositalarning elektron formatlarini” soʻzlari bilan almashtirilsin;

8-pozitsiyaning “Tadbirlar nomi” ustunidagi “onlayn” soʻzi chiqarib tashlansin;

24, 31-pozitsiyalar chiqarib tashlansin;

26-pozitsiyaning “Tadbirlar nomi” ustunidagi “va onlayn kitoblar oʻqish” soʻzlari chiqarib tashlansin;

27-pozitsiyaning “Tadbirlar nomi” ustunidagi “600” raqami “120” raqami bilan almashtirilsin;

e) 4-ilovaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2019 — 2024-yillarda Xalq taʼlimi tizimidagi maktabdan tashqari taʼlim tizimini rivojlantirishning maqsadli koʻrsatkichlari

T/r	Koʻrsatkichlar nomi	Oʻlchov birligi	Yillar kesimida					
			2019	2020	2021	2022	2023	2024
I. Maktabdan tashqari taʼlim tizimini tashkil qilish va boshqarishni takomillashtirish								
1.	“Barkamol avlod” bolalar maktablarini oliy maʼlumotli mutaxassislar bilan toʻldirish.	Foizda (jami toʻgarak rahbarlari soniga nisbatan)	25	30	35	37	40	43
2.	Oʻquvchilarni “Barkamol avlod” bolalar maktablariga qamrab olish.	Foizda (jami umumtaʼlim maktablardagi oʻquvchilar soniga nisbatan)	2,4	4,5	5,7	5,8	5,9	6,0
3.	“Barkamol avlod” bolalar maktablarida “STEAM — taʼlim” (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiyalar, Engineering — muhandislik, Art — sanʼat, Mathematics — matematika) dasturini amaliyotga joriy etish.	Foizda (jami maktablar soniga nisbatan)	mavjud emas	7	20	22	24	25
4.	“Barkamol avlod” bolalar maktablarida “Axborot texnologiyalari”, “Dasturlash”, “Mexatronika” va “Robototexnika”	Ishtirok etuvchi oʻquvchilar foizda	12	14	16	18	20	22

	yoʻnalishlari boʻyicha toʻgarakka aʼzolari sonini oshirish.	(jami toʻgarakka jalb etilgan oʻquvchilar soniga nisbatan)						
II. Oʻquvchilar oʻrtasida kitobxonlikni targʻib qilish va kitob mutolaasini rivojlantirish								
5.	Umumtaʼlim maktablari oʻquvchilari oʻrtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali kitobxonlar sonini oshirish.	Foizda (jami umumtaʼlim maktablaridagi oʻquvchilar soniga nisbatan)	12	14	15	16	18	20
6.	“Bolalar kutubxonalari” va maktab kutubxonalari uchun milliy adabiyot va jahon adabiyoti durdonalariga kiruvchi asarlarning audiokitob shaklini yaratish.	Dona	60	80	90	100	110	120
7.	Oilaviy kitobxonlikni targʻib qilish, kelajakda yosh shoir va yozuvchilarning yetuk shogirdlarini yetishtirish maqsadida turli tanlovlar tashkil etish.	Tadbirlarsoni	2	3	4	5	6	7
III. Maktabdan tashqari taʼlim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, jihozlar bilan taʼminlash va davlat-xususiy sheriklikni yoʻlga qoʻyish								
8.	Davlat-xususiy sheriklik asosida robototexnika va injenerlik toʻgaraklari ulushi.	Foizda (jami maktablar soniga nisbatan)	mavjud emas	3	5	6	7	8
9.	Xorijiy tillar toʻgaraklarini tashkil etishda xususiy sektor vakillarining ulushi.	Foizda (jami maktablar soniga nisbatan)	mavjud emas	12	14	15	16	17
10.	“Barkamol avlod” bolalar maktablari va “Bolalar kutubxonalari”dagi mavjud hujjatlar, statistik maʼlumotlar hamda hisobotlarni raqamlashtirish.	Foizda	mavjud emas	15	20	22	25	30
11.	“Barkamol avlod” bolalar maktablarini keng polosali Internet tarmogʻiga ulash.	Foizda (jami maktablar soniga nisbatan)	5	30	60	85	100	-
12.	“Bolalar kutubxonalari”da xorijiy davlatlar kutubxonalari onlayn sayohatlar uyushtirish imkoniyatini beruvchi virtual maydonlar tashkil etish.	Foizda (jami kutubxonalar soniga nisbatan)	mavjud emas	2	4	5	6	7

13.	“Barkamol avlod” bolalar maktablarida mamlakatimiz va xorijiy davlatlar madaniyati, urf-odatlar, diqqatga sazovor joylari bilan o‘quvchilarni yaqindan tanishtirishga qaratilgan onlayn sayohatlarni o‘z ichiga olgan virtual maydonlar tashkil etish.	Foizda (jami maktablar soniga nisbatan)	mavjud emas	2	4	5	6	7
14.	“Barkamol avlod” bolalar maktablaridagi o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanmalari va ko‘rgazmali vositalarning elektron formatlarini ishlab chiqish.	Foizda	mavjud emas	20	35	38	40	43
15.	“Barkamol avlod” bolalar maktablarida texnik ijodiyot yo‘nalishi bo‘yicha onlayn to‘garaklar tashkil etish.	Foizda (jami maktablar soniga nisbatan)	mavjud emas	5	8	10	12	15
16.	Kitoblardan foydalanish samaradorligini hisobga olish uchun QR-kodlar yordamida elektron kitoblar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni joylashtirish va ularni mobil qurilmalarga yuklab olish hamda o‘qish imkoniyatini yaratish.	Foizda (jami maktablar soniga nisbatan)	mavjud emas	2	5	7	9	10
17.	“Barkamol avlod” bolalar maktablari to‘garak a‘zolarining xalqaro miqyosdagi tadbirlardagi munosib ishtiroki.	Ishtirok etuvchi o‘quvchilar foizda (jami to‘garak a‘zolari soniga nisbatan)	0,2	0,7	1,2	1,5	1,7	1,9

”.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrda “Byurokratik to‘siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4546-son qarorining 1-ilovasi 10-pozitsiyasi “Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining funksiyalari (vakolatlari) beriladigan subyekt” ustunidagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va viloyat xalq ta’limi boshqarmalari” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida gematologiya va transfuziologiya xizmatlarini rivojlantirish hamda onkogematologik va davolash qiyin bo‘lgan kasalliklarga chalingan shaxslarni yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4592-son qarorining 10-bandida:

a) quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro‘yxat asosida og‘ir kasallikka chalingan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning respublikada yo‘lga qo‘yilmagan jarrohlik amaliyotlari bo‘yicha xorijiy davlatlardagi jarrohlik operatsiyalari bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash uchun”;

b) oltinchi xatboshi yettinchi xatboshi deb hisoblansin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son **qarorida**:

- a) 5-bandning **uchinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin;
- b) 8-bandning **yettinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-son **qarorida**:

- a) 6-bandning **to‘rtinchi** va **beshinchi xatboshilari** chiqarib tashlansin;
- b) **5-ilovada**:

13-pozitsiyaning “Ijro muddati” ustunidagi “2021/2022” raqamlari “2022/2023” raqamlari bilan almashtirilsin;

14-pozitsiyaning “Ijro muddati” ustunidagi “2022/2023” raqamlari “2023/2024” raqamlari bilan almashtirilsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-son qarorining **9-bandi** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-son qarori 6-bandining **ikkinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5077-son qarorining **2-bandida**:

- a) quyidagi mazmundagi to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“harbiy vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash yo‘nalishida o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyachilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish”;

b) **to‘rtinchi — oltinchi xatboshilar** tegishincha beshinchi — yettinchi xatboshilar deb hisoblansin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarorining 5-bandi “a” va “b” **kichik bandlari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“a) ta’lim muassasalarining kamida S1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega xorijiy tillar (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu, hind) o‘qituvchilariga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 50 foiz miqdorida qo‘shimcha ustama haqi to‘lab borilsin.

Bunda, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kamida S1 darajadagi xalqaro sertifikatni olish uchun imtihon topshirish bilan bog‘liq xarajatlari Davlat budjetidan pedagog kadrlar malakasini oshirish uchun ajratiladigan mablag‘lar, davlat oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining xarajatlari esa oliy ta’lim muassasalarining o‘z mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilansin;

b) umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarining kamida S1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega xorijiy tillar (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu, hind) o‘qituvchilari attestatsiya jarayonida malaka sinovi uchun maksimal ball bilan baholanib, xorijiy til moduli bo‘yicha sinovdan ozod etilsin.

Bunda, mazkur sertifikatni olish muqobil malaka oshirish shakli sifatida tan olinsin”.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ-5168-son qarori bilan tasdiqlangan Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari to‘g‘risidagi **nizom** quyidagi mazmundagi 2¹-band bilan to‘ldirilsin:

“2¹. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar hamda ularni farzandlikka yoki vasiylikka (homiylikka, patronatga) olgan fuqarolarga Markazlar tomonidan bepul yuridik xizmat ko‘rsatiladi”.

Izoh: mazkur ilovaning 10, 11, 12 va 13-bandlari 2022-yil 1-sentabrdan e‘tiboran kuchga kiradi.